Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Chiqindilarni tozalash va zararsizlantirish tizimiga zaruratni anglash va uni joriy etish ekologik, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3270 sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2693-3).
4. Анисимова З.М. Развитие стратегического банковского менеджмента. Дис.канд. экон. наук: 08.00.10. - М, 2014
5. Harvard Business Review (HBR). Сборник «Менеджмент. Стратегии. HR: Лучшее за 2017 год» 5. Г. Бобоназаров. Мавкура ва экологик муаммолар “Мулокот”журнал: 2001 йил 4-сон 21 бет.
6. А.Шох. М.Шох Экономичиеские проблемо’ охрано’ атмосферного воздуха. Проблемо’ экономического роста и структурной политики в Узбекистане. Сборник научно’х статей. Т.1995г. стр 93-94.
7. О.Абдуллаев , З.Тошматов. Узбекистон экологияси : бугун ва эртага. Т. “Фан”, 1992й. 8. Никонец О.Е., Новикова А.А., Хохлова И.В. Стратегия коммерческого банка как концептуальная основа его деятельности // Научно-методический электронно’й журнал «Концепт». – 2016. – Т. 11. – С. 226–230.
9. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент: Учебное пособие Ю.Н. Лапугин, Д.Ю. Лапугин. – М.: Эксмо, 2010.
10. (https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/24/population-uz/

MAMLAKATIMIZDA SANOAT TARMOQLARIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BOSHQARISH MEXANIZMI

Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich
“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi

252

Published: 24.05.2025

Cite this article: Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich (2025). Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarida to‘qimachilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish boshqarish mexanizmi. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/320

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish
boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
T: 93 785 30 10, 33 337 0100
nfazliddin451@gmail.com

Annotatsiya. Mustaqillik erishilgandan so’ng ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab sa’y-harakatlarni amalga oshirib, **drayver** (driver) sohalardan biriga aylandi. Mustaqillikning ilk davrlarida respublikada ishlab chiqarish sanoatida sanoqli to‘qimachilik korhonali faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida ulkan ishlab chiqarish salohiyatiga ega korxonalar tashkil etilib 570 mingga yaqin aholi tarmog’ida bandligi ta’minlanmoqda. Maqolada raqobatbardoshlik omillari, unga tasir etuvchi asosiy yo’nalishlar va to‘qimachilik sohasini rivojlantirish muammolari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, paxta, ishlab chiqarishni rejalashtirish, sifatni oshirish, raqobatbardoshlik, samarali raqobat muhiti

To’qimachilik sanaotida keng turdagi yuqori sifatli to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uni ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar yaratilgan, bu boradagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan Prezident va hukumatning qator qarorlari qabul qilingan. Qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarilishini ko‘paytirish maqsadida, “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini “Yoshlar va Biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-37 va “To‘qimachilik va tikuvtrikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichiga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-71 farmonlari bilan soha rivoji bo’yicha keng imkoniyatlar berilgan.

To’qimachilik sanoatida ishlab chiqarish zanjirini tashkil etish asosiy omillardan biri bo’lib bunda, qo‘shil qiymatning katta qismi tayyor-trikotaj va tikuvchilik mahsulotlar ishlab chiqarishiga to‘g‘ri keladi. Mamalakatimizda qoshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada xorijdan mijozlar topish va duyoning yetuk brendlarini yurtimizga kirib kelish uchun keng ko’lamda ishlar olib borilmoqda. Yilda ikki bor to’qimachilik sanoati yo’nalishida “UzTextileExpo” ko’rgazmasi o’tkaziladi. Bu ko’rgazmalar diorasida dunyonig yetuk brendlari va haridor (byer/seller)lari ishtirok etadi.

Bu o’z navbatida mahalliy mahsulotlarimizni Dunyo bozorlarida xaridorligi

ortib, raqobat bardoshligi ortib borish hamda “Made in Uzbekiston” (O’zbeikstonda ishlab chiqarilgan) brendi ostida milliy mahsulotlar bilan eksport qilib borishaga erishilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida ilk bor O’zbekistonda 2024 yilning sentyabr oyida Samarqand shahrida ITMF (xalqaro to’qimachilik ishlab ciqaruvchilari) va IAF (kiyim-kechak) federatsiayalari Xalqaro Forumi tashkil etildi. Bunda, 30 ga yaqin davlatdan 400 dan ortiq brendlar, soursing kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar ishtiroki ta’minlanib, mahaliy korxonalar ishtirok etdi.

Ushbu tadbirlarni tashkil etishda sog’lom raqobat, raqabat bardosh bo’lgan tekstil mahsulotlar ishlab chiqarish va korxonalrda jahon talablariga mos bo’lgan innovatsion faoliyatini boshqarish bo’chiya malaka oshirishga erishiladi.

2024 yilida 8,2 milliard dollarlik to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu yetti yil avvalgiga nisbatan 4,2 barobar ko‘p hisoblanadi. Bugungi kunda 6 mingdan ortiq korxonada 570 ming kishi ish bilan ta’minlangan. Shundan tikuv-trikotaj sohasida **67** foizga yaqin ishchi faoliyat olib boradi.

Qirg‘izitonda tikuv mahsulotlari (ayollar/erkaklar ko‘ylagi va parda mahsulotlari) rivojlangan bo‘lsa, O‘zbekistonda trikotaj yo‘nalishida rivojlangan. Shu bilan birga, Namangan viloyati asosan tikuv mahsulotlari ishlab chiqarilishi yaxshi rivojlanib, kostyum-shim, erkar va ayollar ko‘ylaklari ishlab chiqariladi. Tarmoqdagi eksporti hajmi 2024 yilda 2,9 milliard dollarni tashkil etib, eksport geografiyasi 83 mamlakatga yetgan. Bugungi kunda Respublika bo‘yicha 5,5 mingdan ortiq tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritib, 3,6 mlrd donaga yaqin tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega[5].Hozirda Respublika bozorlarida sotilayotgan tikuv-trikotaj mahsulotlarining 70 foizi mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilib, aholi extiyojlari qondirilib kelinmoqda.

Mamlakatizda qo’shilgan qiymat ega bo’lgan zanjirlari yakuniy natijaga ham dunyo talabiga ega bo’lgan yuqori sifatli mahsulotlari ishlab chiqarishga yetarli darajada yo‘naltirilmagan. Sababi shundaki, aynan tayyor trikotaj va kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarda malakali muhandis-texnik kadr yetishmasli yuqori rentabellikdagi ish uchun keng imkoniyatlar yaratilmaydi. Zanjirning har bir bo‘g‘inida qo‘llanilayotgan texnologiyalar, xomashyo va materiallar ichki hamda tashqi bozor talabiga javob beradigan tayyor mahsulotning yuqori sifatini ta’minlash imkonini bermayapti.

Jahon amaliyoti yengil sanoatda qo‘llaniladigan turli xil biznes modellarini

[5] *https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/17/textile/*

namoyish etadi - tashqi sharoitlarning o‘zgarishiga eng moslashgan iqtisodiy sohalardan biri. Shu bilan birga, bir qator mahalliy yengil sanoat korxonalari doimiy raqobatdosh ustunliklarni yaratishga yordam beradigan samarali biznes modellarini shakllantira olmadi. Yengil sanoat nafaqat tovar bozorlaridagi, balki ishlab chiqarish omillari – mehnat va kapital bozorlaridagi tarmoqlararo raqobatga ham bardosh berishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, eksportga yo‘naltirilgan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashqi bozor talablari asosida tashkil etish quyidagi vazifalarni hal qilishni taqozo etadi: korhonalarda innovatsion boshqaruv rag‘batlantirishni kuchaytirish, korxonalarda muhandis-texnik kadrlarni doimiy o’qitish va xorijdan mutaxassislarni jalb qilish, o’quv seminarlarni tashkil etish, eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish; amaldagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini qayta tashkil etish, xalqaro sifat standartlariga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etish; doimiy ravishda assortimentni yangilash va kengaytirish, dizayn ishlarini rivojlantirish; maqsadli bozorlarga mos infratuzilmani yaratish orqali xalqaro tovar bozorlarida marketing tadqiqotlari samaradorligini oshirish; eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni ularning faoliyati uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etish orqali qo‘llab-quvvatlash; xorijiy kapitalni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bozor talablarining o‘zgarishi sharoitida to‘qimachilik korxonalarida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishda ishlab chiqarish dasturini doimiy ravishda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Korxonada uzluksiz rejalashtirish iqtisodiymatematik modellar yordamida rejalashtirish davrida har bir mahsulot turini ishlab chiqarish hajmlarini aniqlashga, korxonaning barcha mavjud resurslaridan samarali foydalanishga, shuningdek, mahsulotlarni xaridorlarga o‘z vaqtida yetkazib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Razikov A. Perfection of the mechanism of attracting foreign investments in light industry of the Republic of Uzbekistan // European journal of economics and management sciences. 2016. №3. P. 15-17. Xalmatov, T. (2023). Rivojlangan davlatlar milliy iqtisodiyotida yengil sanoat korxonalari holatining tahlili. Iqtisodiyot Va ta’lim, 24(1), 456–462. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a71 “O‘zto‘qimachilisanoat” uyushmasi hisobotlari
2. https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/17/textile/